

BOSHLANG‘ICH YOSHDAGI BOLALARDA NEMIS TILINI TALAFFUZ BILAN O’RGATISHNING SAMARALI USULLARI

Abdulazizova Maftuna Azizbek qizi

Termiz davlat Pedagogika instituti, talaba

Ilmiy rahbar: p.f.f.d.(PhD) Z. Shirnazarova

Termiz davlat Pedagogika instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich yoshdagi bolalarga nemis tilini o’rgatishda talaffuzga alohida e’tibor qaratishning ahamiyati yoritilgan. Talaffuzning to‘g‘ri shakllanishi bolaning kelajakdagi til kompetensiyasini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqotda nemis tilining fonetik xususiyatlari, bolalar uchun qulay metodlar, ya’ni o‘yinli mashg‘ulotlar, vizual va audio vositalardan foydalanish, she’r va qo‘shiqlar orqali talaffuzni mustahkamlash kabi samarali usullar tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘qituvchi nutqining etalon rol o‘ynashi, individual yondashuv va motivatsiyaning o‘rni ham ko‘rsatib berilgan. Xulosa o‘rnida, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining psixologik xususiyatlariga moslashgan dars metodikasi orqali nemis tilidagi to‘g‘ri talaffuzni shakllantirish mumkinligi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, nemis tili, talaffuz, fonetika, o‘yinli metod, audiovizual vosita, til o’rganish, bolalar psixologiyasi, motivatsiya, til kompetensiyasi.

EFFECTIVE METHODS OF TEACHING GERMAN TO PRIMARY SCHOOL CHILDREN WITH PRONUNCIATION

Abdulazizova Maftuna Azizbek qizi

Termez State Pedagogical Institute, student

Scientific supervisor: Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)

Z. Shirnazarova

Termez State Pedagogical Institute

Abstract: This article highlights the importance of paying special attention to pronunciation when teaching German to primary school children. The correct formation of pronunciation is an important factor in the formation of a child's future language competence. The study analyzes the phonetic features of the German language, effective methods such as child-friendly methods, namely, game activities, the use of visual and audio aids, and strengthening pronunciation through poems and songs. The role of the teacher's speech as a model, the role of an individual approach and motivation are also shown. In conclusion, it is emphasized that it is possible to form correct pronunciation in German through teaching methods adapted to the psychological characteristics of primary school students.

Keywords: Grundbildung, deutsche Sprache, Aussprache, Phonetik, spielerische Methode, audiovisuelle Hilfsmittel, Spracherwerb, Kinderpsychologie, Motivation, Sprachkompetenz.

Boshlang‘ich yoshdagi bolalarda chet tilini, xususan nemis tilini o‘rgatish jarayoni bolaning individual xususiyatlari, psixologik tayyorgarligi hamda tilga bo‘lgan qiziqishi asosida shakllanadi. Bu jarayonda talaffuzni to‘g‘ri shakllantirish alohida o‘rin tutadi, chunki talaffuz til o‘rgatishning eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Talaffuzdagi muammolar bola nutqining to‘g‘ri va ravon shakllanishiga xalaqit beradi. Ayniqsa, fonetik tizimi ona tilidan keskin farq qiladigan tillarda, masalan, nemis tilida, talaffuzni o‘zlashtirish bosqichma-bosqich, tizimli va metodik yondashuvni talab etadi. Boshlang‘ich sinf

o‘quvchilari hali talaffuz nuqtai nazaridan rivojlanayotgan bo‘lishadi, ular tovushlarni eshitib, taqlid asosida o‘zlashtirishga moyil bo‘lishadi. Shu sababli aynan bu davrda fonetik kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar yuqori samaradorlikka ega bo‘lishi mumkin. Nemis tilida talaffuzga oid xususiyatlar, masalan, umlaut tovushlari (ä, ö, ü), ichki bo‘g‘inlarda urg‘uning o‘zgarishi, jarangli va jarangsiz undoshlar o‘rtasidagi farqlar o‘zbek tilidagi tovush tizimiga unchalik mos kelmasligi sababli boshlang‘ich bosqichda murakkablik tug‘diradi. Bolalarning bu tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishi uchun ularni eng avvalo eshitishga o‘rgatish, ya’ni fonemik eshituvni rivojlantirish zarur. Bunda audiovizual vositalardan foydalanish muhim rol o‘ynaydi. Masalan, so‘zlar va gaplar nemis tilida talaffuzi bilan eshittirilsa, bolalarda fonetik eshituv shakllanadi. Bu eshituv orqali ular tovushlarning qanday aytilishini, urg‘u qayerga tushishini, intonatsiyani qanday ishlatishni o‘rganishadi. Shuningdek, bolalar multfilmlar, animatsiyalar va qo‘sishlar orqali tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatilsa, bu jarayon samarali kechadi. Talaffuzni o‘rgatishda o‘yinli metodlardan foydalanish ham o‘zini oqlagan yondashuvdir. Bolalar bilan ishlashda ularning diqqatini jamlash, faol ishtirokini ta’minlash va qiziqishini uyg‘otish eng muhim omillardandir. O‘yin orqali til o‘rganish, ayniqsa fonetik o‘yinlar, bolalarga kerakli tovushlarni takrorlashga, talaffuz qilishga, so‘z va gaplarda to‘g‘ri aytishga yordam beradi. Masalan, tovushlarni farqlash o‘yini, tovushlarga mos rasm topish, tovushli domino, ovozga ko‘ra harakat bajarish singari faoliyatlar orqali bolalar bexosdan to‘g‘ri talaffuzni o‘zlashtiradilar. Ular o‘yin orqali tilni eshitadilar, ko‘radilar va harakat qilish orqali faol o‘zlashtiradilar. Shuningdek, mashg‘ulotlarda she’rlar, ifodali gaplar va qo‘sishlardan foydalanish talaffuzni o‘zlashtirishga katta yordam beradi. Ritm va intonatsiyani to‘g‘ri eshitish, musiqiy ifodani taqlid qilish orqali bolalar tovushlarni ham to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rganadilar. Nemis tilidagi bolalar uchun mo‘ljallangan qo‘sishlar, masalan, “Alle meine Entchen” yoki “ABC-Lied” kabi qo‘sishlar bolaning fonetik eshituvini faollashtiradi. Har bir qo‘sishda tovushlar takrorlanadi, urg‘u aniq eshitiladi va bu orqali bola talaffuzga e’tibor

bilan yondashadi.Talaffuzni o‘rgatishda o‘qituvchining roli beqiyosdir. O‘qituvchi bolaning til o‘rganishiga namuna bo‘lishi kerak. Ayniqsa, talaffuzda to‘g‘ri nutq namunalarini taqdim etish, har bir so‘zning to‘g‘ri aytilishini ko‘rsatib berish, bolani eshitishga va taqlid qilishga undash juda muhim. O‘qituvchi har bir o‘quvchiga individual yondashib, uning talaffuzdagi kamchiliklarini aniqlab, tuzatishlar kiritishi kerak. Masalan, ba’zi bolalar “ch” va “sch” tovushlarini aralashtirib yuborishi mumkin, bu holatda o‘qituvchi ko‘proq diqqatni bu tovushlarni farqlashga qaratadi. Bola o‘z xatosini sezib, to‘g‘ri aytishga harakat qila boshlaydi.Shuningdek, til o‘rganishda motivatsiyaning o‘rni ham nihoyatda muhim. Boshlang‘ich yoshdagи bolalarda til o‘rganishga nisbatan ichki motivatsiya hali to‘liq shakllanmagan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun, o‘qituvchi tomonidan yaratilgan qiziqarli muhit, rag‘batlantirish, maqtov va muvaffaqiyat hissi bolaning talaffuzga bo‘lgan e’tiborini oshiradi. Bola o‘zini muvaffaqiyatli his qilsa, u talaffuz ustida mustaqil ishlashga ham tayyor bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, baholash tizimi ham rag‘batlantiruvchi bo‘lishi kerak. Har bir kichik yutuq e’tibordan chetda qolmasligi kerak.Talaffuzni o‘rgatish davomida texnik vositalardan foydalanish ham samaradorlikni oshiradi. Masalan, fonetik trenajyorlar, ovoz yozuvchi qurilmalar orqali bolalar o‘z talaffuzlarini eshitishlari, ularni tahlil qilishlari va taqqoslash imkoniga ega bo‘lishadi. Bu ularning o‘z-o‘zini baholash, o‘z ustida ishlash ko‘nikmasini shakllantiradi. Ayniqsa, interaktiv dars platformalari, masalan, “Duolingo for Kids” yoki “LingoKids” singari dasturlar orqali tovushlarni mashq qilish, darsliklardan tashqari amaliy faoliyatni boyitadi.Nemis tilining talaffuz xususiyatlariga doir mashg‘ulotlarni rejalashtirishda bolaning eshitish, ko‘rish, harakat va nutq faoliyatini uyg‘unlashtirgan holda olib borish kerak. Bunday ko‘p kanalli yondashuv bolaning ongida tovushlar, so‘zlar va gaplar yaxlit ko‘rinishda shakllanishini ta’minlaydi. Masalan, nemis tilida “r” tovushi orqa til bilan talaffuz qilinadi, bu tovushni to‘g‘ri aytish uchun avvalo bola uni aniq eshitishi, keyin tilning harakatini anglab yetishi, so‘ngra takrorlashi zarur. Bu jarayonda og‘iz bo‘shlig‘ining harakati, tovush

chiqarish organlarining joylashuvi, nafas olish ritmi ham ahamiyatga ega. Bunday murakkab jarayonni bolalarga oddiy, tushunarli va interaktiv tarzda yetkazish — o‘qituvchining metodik salohiyatiga bog‘liq. Bundan tashqari, sinfdan tashqari faoliyatlar, ya’ni nemis tilida qisqa dialoglar, sahna ko‘rinishlari, dramatizatsiya va hikoya aytish mashg‘ulotlari orqali bolalar talaffuzni amaliyotda mustahkamlashlari mumkin. Bu orqali ular faqat so‘zlarni emas, balki gaplar ichidagi urg‘u, intonatsiya va talaffuz xususiyatlarini o‘zlashtiradilar. Bola o‘zini nemis tilida ifoda qilishga harakat qilar ekan, u talaffuzga e’tiborli bo‘ladi, nutqi silliq va ifodali bo‘lishiga intiladi. Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich yoshdagi bolalarda nemis tilining talaffuzini o‘rgatish murakkab, ammo ayni paytda o‘ta muhim jarayondir. Bu jarayon metodik jihatdan puxta rejalashtirilgan bo‘lishi, bolaning yosh va psixologik xususiyatlariga moslashtirilgan bo‘lishi, ko‘rgazmali, audiovizual, o‘yinli va interaktiv usullar asosida olib borilishi zarur. O‘qituvchining nutqi, bolaga individual yondashuvi, motivatsiya berish uslubi, texnik vositalardan foydalanish qobiliyati va darsni qiziqarli tashkil qilish mahorati bu jarayonning muvaffaqiyatini belgilab beradi. Bolalarning to‘g‘ri talaffuzni o‘zlashtirishi esa ularning kelajakdagi nemis tilida erkin va ravon muloqot qila olishlariga mustahkam asos yaratadi.

XULOSA

Boshlang‘ich yoshdagi bolalarga nemis tilini, ayniqsa talaffuzni samarali o‘rgatish — chet tili ta’limining poydevorini qo‘yish bilan barobar. Fonetik kompetensianing shakllanishi nafaqat to‘g‘ri nutq, balki kelajakda o‘z fikrini chet tilida aniq, ravon va tushunarli ifoda etish imkonini beradi. Shu boisdan talaffuzni o‘rganish jarayonida bola yoshiga mos, eshituvga tayanadigan, ko‘rgazmali va o‘yinli usullarni qo‘llash muhim. Qo‘shiqlar, multfilmlar, texnologiyalar va o‘qituvchining individual yondashuvi orqali bola nutqni faollashtiradi. O‘z nutqini eshitish, xatolarini tahlil qilish va ularni mustaqil tuzatish bola o‘z-o‘zini o‘rgatuvchi subyekt sifatida shakllanishiga zamin yaratadi. Demak, boshlang‘ich

bosqichda to‘g‘ri tashkil etilgan talaffuz mashg‘ulotlari nafaqat til o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqni uyg‘otadi, balki mustahkam bilim, puxta ko‘nikma va ijobiy munosabat asosida shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kasyanova, L.V. (2021). *Chet tillarni o‘rgatishda fonetik kompetensiyani shakllantirish*. Toshkent: Ilm ziyo nashriyoti.
2. Gemein, M. & Schneider, A. (2018). *Phonetik und Aussprachetraining im frühen Fremdsprachenunterricht*. Berlin: Cornelsen Verlag.
3. Xolmirzayev, A. (2020). “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga nemis tilini o‘rgatishning innovatsion metodlari”, *Ta’lim va innovatsiyalar jurnali*, №2 (7), 33-39-betlar.
4. Nikolayeva, S. (2019). *Metodika obucheniya nemetskogo yazyka detyam doshkolnogo i mladshego shkolnogo vozrasta*. Moskva: Prosveshcheniye.
5. Amon, I. & Hauck, B. (2020). *Kinder lernen Deutsch mit Musik und Spielen*. München: Hueber Verlag.
6. Nazarova, N. (2022). “Chet tili darslarida talaffuzni o‘rgatishning psixopedagogik jihatlari”, *Til va adabiyot ta’limi*, №4 (48), 25–31-betlar.
7. LingoKids, Duolingo Kids, Fun German – Interaktiv ilovalar asosida o‘quv materiallari, 2023.